

## ONA TILIMIZDA QO'LLANILADIGAN SO'ZLARNING MAZMUN-MOHİYATI

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim  
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-G  
guruh talabasi Xo'djabayeva Xurshida*

**Annotatsiya:** Bu maqolada tilimizning boyligi, undagi grammatik belgilarning xil- xususiyatlari, nutqimizda uchraydigan xato va kamchiliklar, tilimiz muhofazasiga biz yoshlarning qo'shayotgan hissasi hamda buyuk ajdodlarimizning til to'g'risida bildirgan ibratli so'zlari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Til, til muhofazasi, nutq, omonim, sinonim, paronim, noadabiy qatlam, lug'at, so'z yasalishi

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar o'rtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot «oldi-berdisi»ning timsolsiz ta'minlovchisi. U yo'qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo'lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o'zida xalq, erki o'zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg'usini bir on unutmaydi. Tilimizning muhofazasi biz-yoshlarning qo'lida. Har bir inson o'ziga berilgan matnni chiroyli ohangda o'qib bera olishi mumkin, lekin hamma ham grammatik qoidalarga asoslanib, matn ichidagi kichkina elementlarga ham e'tibor qaratgan holda tinglovchiga yetkazib bera olmaydi. Chunki bizning ona tilimiz hisoblanadigan o'zbek tilida o'xshashliklar xilma-xildir. Jumladan, Leksikologiya bo'limida o'rganiladigan shakldosh so'zlar (ilmiy terminda "omonimlar") juda ko'p bo'lib, hatto birgina so'zning 10tagacha ma'nosi mavjud. Bularni faqatgina ohang yordamida farqlashimiz mumkin. "Dam" so'zini oladigan bo'lsak, uning; havo, olovga havo puflovchi asbob, lahza, o'tkir joy, havo yig'ilib qolgan joy ma'nolarini ifodalaydi va Yordamchi so'z turkumiga oid ayiruv bog'lovchisi bo'lib ham kela oladi. Shu o'rinda aytib o'tish joiz omonim ya'ni shakldosh so'zlar kambag'allashishiga sabab bo'ladi. Ma'nodosh so'zlar buning aksi, ya'ni bir nechta so'z bir ma'noni anglatib keladi. Vatan, mamlakat, yurt, diyor, el, mulk- bu so'zlarning barchasi kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqarosi bo'lgan joy, hudud ma'nosida keladi. Shakldosh so'zlar va ma'nodosh so'zlar qatorida yana bir guruh borki, bu talaffuzdosh so'zlar(ilmiy terminda "poronimlar")dir. Nutqimizda poronimlarni qo'llashda ko'plab xatolarga yo'l qo'yamiz. Negaki, qaysi so'z imloviy jihatdan qanday yozilishini, eng asosiysi, qanday talaffuz qilinishini bilmaymiz. Bu esa fikrimizni tinglovchilarga to'liq yetkazib berishimizga to'sqinlik qiladi. Tilimizda

ko'p uchraydigan "Yomondan qoch, yaxshiga yondosh" maqolini olaylik. Gapdagi "yondosh" so'zi poronim so'z hisoblanib, "yonidagi" ma'nosini beradi. Aslida esa, "Yomondan qoch, yaxshiga yondash" bo'lishi kerak. "Yondash" so'zi esa "yaqinlash" degan ma'noni anglatadi. Nutqimizda bunday so'zlar juda ko'p bo'lib, ulardan yana bittasini ko'rib chiqamiz. Hammamizga ayonki, biz "yonilg'i" so'zining o'rnida "yoqilg'i" so'zini ishlatamiz. Yonilg'i - bu gaz, kerosin, benzin kabi yonuvchi suyuqliklar; yoqilg'i esa-o'tin, ko'mir kabilar hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, biz o'z ona tilimizda aniq va to'g'ri gapira olmaymiz. Oddiygina har kuni ishlatadigan so'zlarimizning ma'nosiga e'tibor qaratmaymiz ham.

"Kelajak yoshlarning qo'lida" deya bejizga aytilmagan. Boisi shuki, biz hozirdan o'zbek tilimizning sofligini saqlashga harakat qilishimiz kerak. O'zbek tili grammatikasining Leksikografiya bo'limida noadabiy qatlam so'zlari o'rganiladi. Noadabiy qatlam so'zlariga Madrim Hamroyev o'zining "Ona tili" kitobida quyidagicha ta'rif beradi: "Xalqimizning jonli tilida uchraydigan, ayrim shaxslarning fe'l-atvorini ko'rsatib turadigan so'z, ibora va birikmalar noadabiy qatlamni tashkil etadi". Noadabiy qatlam jargon so'zlar, argo so'zlar, vulgarizm hamda varvarizm kabilardan iborat. Mening fikrimcha, nutq so'zlash jarayonida bu so'zlardan foydalanmaganimiz ma'qul, chunki bizning tilimiz boy, har taraflama boyish manbalariga ega(ichki manba: so'zga qo'shimcha qo'shish va so'zga so'z qo'shish orqali; tashqi manba: chet tillardan so'z olish orqali). Bizning ona tilimizga zid bo'lgan so'zlardan iloji boricha yiroqlashishimiz darkor, aks holda tilimizda turli xil parazit so'zlar, varvarizmlar ko'payib, milliyligimiz yo'qolib ham ketishi mumkin. Avvallari ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar o'zbek adabiy tilida olib borilar edi, hozir esa shevalarda va turli xil chet so'zlarni qo'llagan holda olib borilmoqda( hamma ommaviy axborot vositalarida emas). Lekin hozirgi kunda bunga hech qanday chora-tadbirlar ko'rilayotgani yo'q. Ko'chalardagi afishalarda ham xato va kamchiliklar talaygina. Biz nutqimizda bo'lar-bo'lmas so'zlardan foydalangandan ko'ra tilimizning boyishiga o'z hissamizni qo'shib, yangi so'zlardan ya'ni avvallari eskilik sarqitida bo'lgan lekin hozirgi kunda tilga qaytadan olib kirilayotgan so'zlar(ma'naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh, matbaa, muallif, munaqqid, tashxis, tijorat kabi); til tabiatiga uyg'un tarzda yangi ma'nolar yuklanayotgan so'zlar (masalan, vazir, viloyat, tuman, hokim, zobit kabi); ilgari salbiylik bo'yog'iga ega bo'lib, davr taqozosiga ko'ra ijobiy bo'yoq kasb etayotgan so'zlar(masalan, biznes, biznesmen, millioner, savdogar, fermer, janob, kapital, parlament, firma kabi)lardan foydalansak o'rinli bo'ladi. Qatag'on qurboni bo'lgan o'zbek hikoyachiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ham o'zbek tili rivojlanishiga hissa qo'shib, o'z asarlarida so'z yasaliish me'yorlaridan sal chekingan holda yangi so'zlarni qo'llagan. Quyida beriladigan iqtibos ichidagi ayrim so'zlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

"Uning (Otabekning) ko'ngil mevasi bu kungi qora voqea bilan qanday o'ralib, yo'qolib ketgan bo'lsa, bundagi daraxtlar ham o'z mevalarini kecha rangi bilan bo'yab, yashil yaproqlari ila ko'mgan edilar, ya'ni bunda o'sgan daraxtlar qanday meva beradir – ajratish qiyin edi. U shu qorong'uzor bilan qo'shilishib ketgandek va qorong'ulikning quchog'iga kira borgandek mevazorning ichkarisiga yura bordi". Bu parchada -zor o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchasi qorong'u so'ziga qo'shilib, yangi ma'no hosil qilgan.

Xulosa o'rnida Mirzakalon Ismoilning mashhur so'zlarini keltirib o'taman: "Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmagan yo toza gapirishni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb bo'lmaydi. Gapning qisqasi, madaniyatli bo'lish uchun odamga faqat bilim, kiyim, taqinchoq, yaxshi ro'zg'orning o'zigina kifoya emas, shular bilan birga shirinso'zlik, tozalik, saranjomlik, og'irlik, halollik va eng muhimi, o'z ona tiliga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat ham zarurdir". Shunday ekan, biz, yoshlar tilimiz sofligi va musaffoligi uchun o'zimizning ozgina hissamizni qo'shib, bizdan keyingi avlodga o'rnak bo'laylik. Navoiy bobomiz o'zining asarida 26035 ta betakror so'z (jami 1 378 660 ta) so'z qo'llagan. Biz ham ajdodlarimizga munosib avlod bo'ib, ularning mehnatini hurmat qilgan holda, o'zimizdan buyuk izlar qoldiraylik!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ona tili" 11-sinf darsligi Toshkent 2018
2. "Ona tili" Madrim Hamroyev Toshkent 2018
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2006-2008yillar
4. "Ona tili" G'.Abdurahmonov, H.Rustamov Toshkent 2004
5. N.Mahmudov Ona tili (11-sinflar uchun darslik)
6. "O'tkan kunlar" Abdulla Qodiriy 2018
7. "So'z xususida so'z" Alibek Rustamov